



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

OLIY TA'LIM TIZIMI TALABALARIDA VATANPARVARLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ISTIQBOLLARI

Norov Nodir Jo'rayevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

norovn552@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimi talabalarida vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik istiqbollari yoritilgan. Unda vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning talaba shaxsini tarbiyalashdagi ahamiyati hamda vatanparvarlik kompetensiyasining tarkibiy komponentlari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli ta'lim muhiti sharoitida talabalarda milliy qadriyatlarga sodiqlik, Vatanga daxldorlik hissi, ijtimoiy faollik, fuqarolik mas'uliyati va mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari asoslab berilgan. Maqolada vatanparvarlik kompetensiyasi oliy ta'limda shaxsni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim pedagogik omili sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zalar: vatanparvarlik, vatanparvarlik kompetensiyasi, pedagogik istiqbol, milliy qadriyatlar, talaba-yoshlar, fuqarolik mas'uliyati.

KIRISH

Bugungi raqamli ta'lim muhiti sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol va Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan yoshlarni tarbiyalash vazifasi turibdi. Ta'lim jarayonida talabalarni faqat kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish yetarli emas. Ularni yuksak ma'naviyatli, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, o'z kasbiy faoliyatini Vatan ravnaqi bilan bog'lay oladigan shaxs sifatida shakllantirish ham muhim hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi, milliy o'zlikni anglash darajasi va ma'naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qiladi. Chunki o'z Vatanini sevgan, uning tarixi va qadriyatlarini anglagan talaba kelajakdagi kasbiy faoliyatini ham jamiyat taraqqiyoti bilan bog'laydi. Vatanparvarlik kompetensiyasi talabaning Vatan haqidagi bilimlari, milliy qadriyatlarga munosabati, ona yurtga muhabbati, fuqarolik burchini anglashi va amaliy faoliyatda vatanparvarlik fazilatlarini namoyon eta olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiya talabaning shaxsiy, ma'naviy va kasbiy kamolotini ta'minlovchi muhim pedagogik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Vatanparvarlik g'oyasi xalqimizning boy tarixiy, ma'naviy va pedagogik merosida alohida o'rin tutadi. Amir Temur, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning asarlarida Vatanga sadoqat, xalq manfaatiga xizmat qilish, ilm-ma'rifat orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish g'oyalari keng yoritilgan. Ayniqsa, Abdulla Avloniy asarlarida tarbiya, axloq, milliy o'zlik, ma'rifat, yurtga muhabbat va yosh avlod kamoloti masalalari muhim o'rin egallaydi [5]. Uning pedagogik qarashlarida vatanparvarlik shaxs

tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Bu g'oyalar bugungi oliy ta'lim jarayonida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Respublikamiz olimlari tomonidan ham talaba-yoshlarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, milliy madaniyatni rivojlantirish, o'zlikni anglash, ona yurtga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalash masalalari keng o'rganilgan. Tadqiqotlarda yoshlarning milliy g'ururi, ma'naviy qadriyatlari, fuqarolik mas'uliyati va mafkuraviy immunitetini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [2;8]. Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb pedagogik muammolardan biridir. Chunki zamonaviy jamiyatda talaba nafaqat bilimli mutaxassis, balki o'z xalqiga, Vataniga va kasbiy burchiga sodiq shaxs sifatida shakllanishi zarur.

ASOSIY QISM

Vatan tushunchasi inson tug'ilib o'sgan joy, avlod-ajdodlari yashagan makon, ijtimoiy muhit va mamlakatni anglatuvchi muqaddas tushunchadir. Vatan keng ma'noda xalqning tarixiy makoni, tor ma'noda esa inson voyaga yetadigan oila, mahalla, qishloq yoki shahar bilan bog'liq ijtimoiy-ma'naviy muhitdir. Vatanparvarlik esa insonning o'z yurtiga muhabbati, xalqiga sadoqati, milliy qadriyatlariga hurmati, Vatan tinchligi va taraqqiyoti yo'lida mas'uliyat bilan yashashidir. Vatanparvarlik shaxsda o'z-o'zidan shakllanmaydi [6;8]. U ta'lim, tarbiya, ijtimoiy muhit, oila, tarixiy xotira va shaxsiy tajriba orqali bosqichma-bosqich rivojlanadi. Oliy ta'lim tizimida vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish talabalarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish bilan bevosita bog'liq. Chunki Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shish istagi talabaning bilim olishga intilishi, kasbiy mas'uliyati va ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Bunday talaba ta'limni faqat shaxsiy manfaat vositasi sifatida emas, balki jamiyatga foydali mutaxassis bo'lib yetishish imkoniyati sifatida qabul qiladi.

Vatanparvarlik kompetensiyasi quyidagi tarkibiy komponentlar asosida shakllanadi:

Kognitiv komponent — talabaning Vatan tarixi, milliy qadriyatlar, buyuk ajdodlar merosi, davlat ramzlari, fuqarolik burchi va ijtimoiy mas'uliyat haqidagi bilimlarini o'z ichiga oladi. Bu komponent talabalarda vatanparvarlik haqidagi ongli tasavvurni shakllantiradi.

Aksiologik komponent — talabaning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati, Vatan, xalq, mustaqillik, tinchlik, adolat va insonparvarlik kabi qadriyatlarni qadrlash darajasini ifodalaydi.

Emotsional-identifikatsion komponent — talabaning o'zini Vatan bilan bog'lay olishi, ona yurtga muhabbat, milliy iftixor, daxldorlik va g'urur tuyg'ularini his qilishi bilan bog'liqdir.

Faoliyatli komponent — talabaning vatanparvarlikni amaliy faoliyatda namoyon eta olishi, jamoat ishlarida ishtirok etishi, ijtimoiy tashabbus ko'rsatishi, yurt ravnaqi yo'lida bilim va salohiyatini safarbar etishini anglatadi.

Mazkur komponentlar o'zaro bog'liq holda talabaning vatanparvarlik kompetensiyasini shakllantiradi. Agar talaba Vatan haqidagi bilimlarga ega bo'lsa, milliy qadriyatlarni qadrlasa, yurtga daxldorlik hissini anglasa va bu fazilatlarni amaliy faoliyatda namoyon eta olsa, unda vatanparvarlik kompetensiyasi izchil rivojlangan

bo'ladi. Oliy ta'lim tizimida talabalar vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim hisoblanadi.

Birinchidan, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar va tarixiy merosga tayangan holda mavzularni hayotiy misollar bilan bog'lash zarur. Talaba o'zining kelajak kasbi va Vatan taraqqiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni anglashi lozim.

Ikkinchidan, mashg'ulotlarda talabalarning faolligini oshiruvchi interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Munozara, loyiha, esse, taqdimot, keystadi, muammoli vaziyatlar va rolli o'yinlar vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali natija beradi.

Uchinchidan, talabalarda daxldorlik hissini shakllantirish lozim. Daxldorlik hissi kuchli bo'lgan talaba jamiyatdagi voqealarga befarq bo'lmaydi, o'z bilim va qobiliyatini yurt ravnaqi uchun yo'naltirishga intiladi.

To'rtinchidan, raqamli ta'lim vositalaridan tarbiyaviy maqsadda samarali foydalanish muhimdir. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimlari talabalar ongiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularda axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish vatanparvarlik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Beshinchidan, vatanparvarlik tarbiyasi uzluksiz va tizimli tashkil etilishi kerak. U faqat bayram tadbirlari yoki ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar bilan cheklanib qolmasdan, har bir fan mazmuniga, tarbiyaviy ishlar rejasiga va talabalar faoliyatiga singdirilishi lozim. Raqamli ta'lim muhiti sharoitida vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Elektron ta'lim platformalari, virtual muzeylar, tarixiy manbalar, multimedia vositalari, onlayn muhokamalar, videodarslar va interaktiv topshiriqlar orqali talabalarda milliy tarix, ajdodlar merosi va Vatan taraqqiyotiga qiziqish kuchayadi. Raqamli vositalar orqali tashkil etilgan ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat talabalarga tarixiy voqealarni tahlil qilish, milliy qadriyatlarning mazmunini anglash, vatanparvarlik g'oyalarini zamonaviy hayot bilan bog'lash imkonini beradi. Ayniqsa, virtual ekskursiyalar, tarixiy shaxslar hayotiga bag'ishlangan taqdimotlar, elektron portfolio, raqamli loyiha ishlari va onlayn munozaralar talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiradi [1;2]. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, ilmiy-amaliy anjumanlar, esse va taqdimot tanlovlari, tarixiy obidalarga tashriflar, ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyati orqali talabalarning vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish mumkin. Bunday faoliyat turlari talabalarda ijtimoiy mas'uliyat, tashabbuskorlik, jamoada ishlash va Vatan manfaatlari yo'lida faol bo'lish ko'nikmalarini shakllantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik kompetensiyasi talabaning shaxs sifatida shakllanishi, kasbiy mas'uliyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. O'z Vatani sevgan, uning tarixini bilgan, milliy qadriyatlarini anglagan talaba o'z bilimini jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirishga intiladi. Oliy ta'lim tizimida vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi natijalarga olib keladi: talabalarda Vatan, xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyat hissi kuchayadi; milliy qadriyatlarga hurmat va tarixiy xotira mustahkamlanadi; talabalarda tanqidiy fikrlash,

axborot madaniyati va ijtimoiy faollik rivojlanadi; kelajak mutaxassislarining kasbiy faoliyatga mas'uliyatli munosabati shakllanadi; yoshlarning Vatan taraqqiyotiga daxldorlik hissi ortadi; ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligi oshadi; talabalarda ijtimoiy tashabbuskorlik va fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi. Shu bois vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish oliy ta'limdagi pedagogik ishlarning muhim yo'nalishi sifatida qaralishi lozim. Bu jarayon talabalarni ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash va kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida talabalar vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biridir. Raqamli axborot oqimi kuchaygan, globallashuv jarayonlari jadallashgan hozirgi davrda yoshlarning milliy o'zligini anglash, Vatanga sadoqat, ijtimoiy mas'uliyat va daxldorlik hissiga ega bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Vatanparvarlik kompetensiyasi talabada faqat bilim sifatida emas, balki qadriyat, munosabat va amaliy faoliyat ko'rinishida shakllanishi kerak. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonlari uzviy tashkil etilishi, professor-o'qituvchilar, tyutorlar va guruh murabbiylari hamkorligida tizimli ishlar olib borilishi lozim.

Demak, vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish talabalarni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalash va kelajakda Vatan ravnaqi uchun xizmat qiladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashning muhim pedagogik asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev K.R. Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2023.

2. Tursunov Sh.R. Talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar. Avtoreferat. – Samarqand, 2023.

3. Xonimqulov A.R. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmini takomillashtirish. Avtoreferat. – Toshkent, 2023.

4. Sa'dullayev A. Yoshlar ma'naviyati va tarbiya masalalari. – Toshkent: Ma'naviy

5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent.

6. Pazilov T.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qoraqalpoq folklori namunalaridan foydalanishni takomillashtirish. Avtoreferat. – Nukus, 2023.

7. Achilov T.S. Harbiy tarix fanini o'qitish orqali talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirish metodikasi. Avtoreferat. – Chirchiq, 2024.